



Shodixonov Sh.A. – TDIU magistranti

Mahalliy budjetlar daromadlar bazasini mustahkamlashda mahalliy soliqlarning ahamiyatini oshirish yo'llari

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy budjetlar barqarorligi masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholisining ijtimoiy sharoiti, joylarda ijtimoiy muammolarni hal qilish, yangi ish joylarini yaratish, hududlardagi davlat boshqaruvi organlarining moliyaviy-budjet masalalarini to'g'ri hal qila bilishiga bog'liqdir. Bunda mahalliy budjetlarga tushadigan mahalliy soliqlar va yig'imlarning turlari, ularning miqdorini belgilash alohida o'rin tutadi. Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig'imlar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo'nalish qilib belgilanishi lozim. Mahalliy budjetlar daromadlari bazasini mustahkamlash va daromad bazasini kengaytirib borish dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy budjetlarning daromad bazasi hududlarda yaratilayotgan milliy daromad, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, daromadlarning doimiy va bir maromda tushishi bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning ichki rezervlari hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish har bir hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjetlarning o'z daromadlari bazasini kengaytirish va moliyaviy mustaqilligini oshirish borasida olib borilgan fiskal islohotlarga qaramasdan, davlat budjetida mahalliy soliq daromadlarining ulushi pastligi kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda hududlar barqaror o'sishining shartlaridan biri "budjetdan foydalanish samaradorligini oshirish orqali muhim taktik va strategik vazifalarni hal qilishga kompleks yondashishga imkon beradigan iqtisodiy o'sishning eng muhim drayveri sifatida tan olinishi" hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, mahalliy budjetning o'z daromadlar bazasini kengaytirish hamda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni talab etadi. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, mahalliy budjetning o'z daromadlarini oshirishda moliyaviy vositalardan keng foydalanish, soliq potensialini baholashda samarali usullarni qo'llash yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etiladi.

Mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, mahalliy budjet daromadlarining shakllanish mexanizmi, mahalliy budjet daromadlari tarkibi va ulushini tahlil qilish, hududlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va undan oqilona



foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Budget intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budget tizimining shaffofligini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget daromadlari prognoz ko'rsatkichlari bajarilishida manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida quyidagilar belgilandi:

soliq-budget siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli budget asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budgetni shakllantirishning yangi «natijaga yo'naltirilgan budget» tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va budget jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

budget mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish; budget ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash; budget jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Qayd etilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar olib borish respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi qilib belgilanishi lozim. Bu bir tomondan mahalliy hokimiyat organlarining daromad bazasini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlari ko'rsatkichlari keltirilgan:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlari ko'rsatkichlari¹, mlrd so'm

hududlar	daromad	xarajat	hududlar	daromad	xarajat
Toshkent sh.	8218	10364	Jizzax viloyati	2228	4649
Namangan viloyati	3931	8114	Sirdaryo viloyati	1390	3148
Farg'ona viloyati	5169	9890	Surxondaryo viloyati	3043	7944
Toshkent viloyati	6024	7770	Qashqadaryo viloyati	4608	10519

¹ www.openbudget.uz



Andijon viloyati	3931	8137	Navoi viloyati	3039	4046
Samarqand viloyati	5100	8779	Xorazm viloyati	2741	5610
Buxoro viloyati	3877	5968	Qoraqalpog‘iston respublikasi	2844	6806

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti taqchilligiga ta’sir ko‘rsatgan mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi muvazonatning buzilganligining ham ulushi bar. 2023 yil mahalliy budjetlar daromadlari 55,7 trln so‘mni, xarajatlari 101,7 trln so‘mni tashkil etgan. Mahalliy budjetlar xarajatlari daromadlaridan 46 trln so‘mga ko‘p bo‘lgan va bu respublika budjeti taqchilligiga qo‘shimcha yuk bo‘lib tushadi.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini shakllantirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini o‘rganish hamda mahalliy budjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Mahalliy budjetlarga birlashtirilgan soliqlar tushumi hajmini oshirish va ularning asosida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadga muvofiq;

Mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini uzoq muddatga belgilash va shu bilan birga ushbu soliqlar bo‘yicha tushumlarni oshirishdan tushgan ortiqcha mablag‘lardan mahallalarni moliyaviy ta’minlashga yo‘naltirish lozim;

Respublika budjetidan mahalliy budjetlarga budjet transfertlar ajratish tizimining mavjudligi ularni yuqori budjetga tobeligini bildiradi. Bu holat mahalliy hokimiyat organlarining erkinligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini bermaydi va mahalliy hokimiyat organlarining boqimandaligini kuchaytiradi.

Umuman olganda, mahalliy budjet daromadlari bazasini mustahkamlashni ta’minlash mahalliy hokimiyat organlarining tadbirkorlikni rivojlantirishga, xususan, kichik va o‘rta biznes sohasida manfaatdorligini oshirishdan dalolat beradi, bunda davlatning ma’muriy-hududiy birliklari moliyaviy holatini yaxshilash va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘z daromad bazasini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O‘RQ-360-son qonuni bilan tasdiqlangan.



Google
Scholar



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023 yil 25 dekabrda O‘RQ-886-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining «2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 29-dekabrda PQ-422-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2017 yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-sonli qarori.

5. Meyliev O. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali., №4, 2021 yil iyul-avgust soni.

6. Burxanov A, Qurbonov X. “Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida)”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.

7. <https://openbudget.uz>-O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq budjet” portali.